IRFAN
AKADEMIYASI
ILM • TA'LIM • TARAQQIYOT


RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILM, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALAR
UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

OKTABR

TOSHKENT
O'ZBEKISTON



O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Asilova Sanobar Xatamboyevna

Qo'qon universiteti mustaqil tadqiqotchisi

asilovasanobar03@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.23266259

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Interfaol metodlar, loyiha va muammoli ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt vositalari, o'yin va simulyatsion texnologiyalar hamda kouching yondashuvining kasbga yo'naltirishdagi o'rni tahlil qilingan. Farg'ona, Namangan va Qashqadaryo viloyatlaridagi 8 ta maktabda o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari ushbu texnologiyalarni kompleks qo'llash o'quvchilarning kasbga yo'nalganlik darajasini sezilarli oshirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: kasb-hunarga yo'naltirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, loyiha texnologiyasi, kasbiy simulyatsiya, kouching, GROW modeli, sun'iy intellekt, kasbiy o'zini o'zi belgilash.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda mehnat bozoridagi tub o'zgarishlar ta'lim tizimidan yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat chuqur nazariy bilimlarga ega bo'lish, balki tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish, muammolarni mustaqil hal etish, tanqidiy va kreativ fikrlash, samarali muloqot qilish hamda kasbiy faoliyatni ongli ravishda rejalashtirish kabi kompetensiyalarga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga puxta tayyorlash, ularda mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda ongli kasb tanlashga yo'naltirishdan iboratdir. Kasb tanlash shaxs hayotidagi eng muhim qarorlardan biri hisoblanadi. Mazkur qarorning

to‘g‘ri qabul qilinishi o‘quvchining nafaqat kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati, balki uning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va hayotdan qoniqish darajasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli kasbiy yo‘naltirish jarayoni tasodifiy yoki epizodik xarakterga ega bo‘lmasligi, balki ilmiy asoslangan, tizimli va maqsadli tashkil etilishi lozim. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyat yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish, ta’lim jarayoniga qiziqishini oshirish hamda shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi metodlar, vositalar va tashkiliy shakllar tizimini o‘z ichiga oladi. Mazkur texnologiyalar o‘quvchini ta’lim jarayonining passiv tinglovchisidan faol ishtirokchisiga aylantirib, uning bilimlarni mustaqil egallashiga va amaliy faoliyatda qo‘llashiga imkon yaratadi.

Mamlakatimizda bu masala davlat siyosati darajasida qo‘yilgan. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun [1] va «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi [2] ta’limning amaliy yo‘nalganligini kuchaytirish va ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish vazifalarini belgilagan. PQ-241-son qaror bilan 7–9-sinflarda kasbga moyillik tashxisi [3], PQ-53-son qaror bilan esa 10–11-sinflarda «Biznes va kasb-hunarga o‘qitish» yo‘nalishi joriy etildi [4]. Biroq maktab amaliyotida kasbga yo‘naltirish ko‘pincha axborot berish va alohida tadbirlar bilan cheklanib qolmoqda.

Maqolaning maqsadi – o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlarini ochib berish va ularni kompleks qo‘llash samaradorligini tajriba-sinov orqali asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kasbga yo‘naltirishning nazariy asoslari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. J. Holland shaxs tiplari va kasbiy muhit muvofiqligi nazariyasini [5], Ye.A. Klimov esa kasblarni mehnat predmetiga ko‘ra besh turga ajratuvchi tasnifni ishlab chiqqan [6]. N.S. Pryajnikov o‘quvchini faollashtiruvchi kasbga yo‘naltirish o‘yinlari va mashqlari tizimini asoslab, o‘quvchi tayyor tavsiyani qabul qiluvchi emas, balki o‘z tanlovini mustaqil asoslovchi subyekt bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan [7]. R.

Lent va hammualliflari kasbiy qiziqish va tanlovda o‘z-o‘zini samaradorlik hissining hal qiluvchi rolini ko‘rsatgan [8], J. Uitmor taklif etgan GROW modeli esa kouching suhbatini tizimlashtirish imkonini beradi [9].

O‘zbek olimlaridan N.A. Muslimov va hammualliflari innovatsion ta’lim texnologiyalarining nazariy-metodik asoslarini [10], U.Sh. Begimqulov ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish masalalarini [11], A.A. Mamadaliyev esa kasbga yo‘naltirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llarini [12] tadqiq etgan. Shunga qaramay, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bitiruvchilarni kasbga yo‘naltirishda yagona tizim sifatida qo‘llash masalasi yetarli o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, kuzatish, suhbat, anketa so‘rovi va pedagogik tajriba-sinov usullaridan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari 2024–2025-yillarda Farg‘ona, Namangan va Qashqadaryo viloyatlaridagi 8 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabining 322 nafar 11-sinf o‘quvchisi (tajriba guruhida 162, nazorat guruhida 160 nafar) ishtirokida o‘tkazildi. Diagnostikada L. Yovayshining «Kasbiy moyillik so‘rovnomasi», muallif anketasi va bilim testi qo‘llanildi; natijalar Styudent t-mezoni va Pirson χ^2 mezoni yordamida qayta ishlandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida kasbga yo‘naltirishda samarali deb topilgan yettita zamonaviy pedagogik texnologiya ajratildi. Ularning har biri kasbiy o‘zini o‘zi belgilashning muayyan jihatiga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Kasbga yo‘naltirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning imkoniyatlari

Texnologiya	**Metod va shakllar**	**O‘quvchida shakllanadigan natija**
Interfaol ta’lim	«Aqliy hujum», «Klaster», «Debat», «FSMU», keys-stadi	Tanqidiy fikrlash, kasblar haqida chuqur tasavvur, o‘z fikrini himoya qilish
Loyiha texnologiyasi	«Kelajak kasblari», «Hududimizda talab yuqori bo‘lgan kasblar», «Mening kasbiy rivojlanish rejam» loyihalari	Mustaqil axborot to‘plash, tadqiqotchilik, kasbiy rejalashtirish
Muammoli ta’lim	«Sun’iy intellekt qaysi kasblarga	Tahliliy fikrlash, dalillarga

Texnologiya	Metod va shakllar	O‘quvchida shakllanadigan natija
	xavf tug‘diradi?» kabi muammoli savollar	asoslangan qaror qabul qilish
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	Onlayn tashxis, elektron platformalar, virtual ekskursiyalar, videointervyular	Raqamli kompetensiya, mustaqil axborot izlash
Sun’iy intellekt vositalari	Maslahatchi dasturlar, qiziqish va o‘quv natijalarini tahlil qiluvchi tizimlar	Individual kasbiy yo‘nalishlar bo‘yicha qo‘shimcha tavsiyalar
O‘yin va simulyatsion texnologiyalar	Rolli va biznes o‘yinlar, «Bir kun – muhandis» kabi simulyatsiyalar	Kasbni amalda sinab ko‘rish, o‘z-o‘zini samaradorlik hissi
Kouching	GROW modeli asosidagi individual suhbatlar	Maqsad qo‘yish, refleksiya, mustaqil qaror qabul qilish

Interfaol metodlar o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Masalan, «Klaster» metodi kasblarni yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlash va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rishga, «Debat» esa turli kasblarning afzallik va kamchiliklarini dalillar asosida muhokama qilishga o‘rgatadi. Loyiha faoliyatida o‘quvchilar statistik ma’lumotlar bilan ishlaydi, so‘rovnomalar o‘tkazadi, mutaxassislar bilan suhbatlashadi va natijani taqdimot shaklida himoya qiladi.

Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi STEAM-loyihalar ham samarali vosita hisoblanadi. «Aqlli issiqxona» (biologiya, informatika, texnologiya), «Maktab binosining energiya samaradorligi» (fizika, matematika, ekologiya), «Milliy naqsh asosida dizayn» (san’at, geometriya, kompyuter grafikasi) kabi loyihalarda o‘quvchilar muhandis, agronom, dizayner va dasturchi kasblarining real vazifalari bilan tanishadi. Bunday loyihalar texnik kasblarga qiziqishni oshiradi va qizlarning texnika sohalariga oid stereotiplarini bartaraf etishga yordam beradi [13].

O‘yin va simulyatsion texnologiyalar kasbiy faoliyatni xavfsiz sharoitda sinab ko‘rish imkonini beradi. «Bir kun – muhandis» simulyatsiyasida o‘quvchilar kichik guruhlarda qurilish obyektining soddalashtirilgan loyihasini tayyorlaydi: buyurtmachi talablarini o‘rganadi, smetani hisoblaydi va loyihani «buyurtmachi» rolidagi o‘qituvchiga himoya qiladi. Bunday

mashg'ulotlar o'quvchida «men buni uddalay olaman» degan ishonchni, ya'ni o'z-o'zini samaradorlik hissini mustahkamlaydi [8].

Kouching texnologiyasida pedagog tayyor tavsiya bermaydi, balki savollar orqali o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. GROW modeli to'rt bosqichdan iborat [9]: Goal – maqsadni aniqlash («Kelajakda qanday kasb egasi bo'lishni xohlaysan?»), Reality – mavjud holatni tahlil qilish («Bu maqsad uchun hozir qanday bilim va ko'nikmalaring bor?»), Options – variantlarni ko'rib chiqish («Maqsadga qanday yo'llar bilan erishish mumkin?») va Will – harakat rejasini belgilash («Birinchi qadam sifatida nima qilasan va qachon?»). Tajriba-sinovda GROW asosidagi suhbatlar, ayniqsa, bir necha kasb o'rtasida ikkilanayotgan o'quvchilar bilan ishlashda samarali bo'ldi: suhbat yakunida ular aniq qadamlarni belgilab, ularni individual kasbiy rivojlanish rejasiga kiritdilar.

Raqamli vositalar va sun'iy intellekt asosidagi maslahatchi dasturlar o'quvchining qiziqish, qobiliyat va o'quv natijalarini tahlil qilib, mos yo'nalishlarni tavsiya etishi mumkin [14]. Biroq onlayn test natijasi yoki sun'iy intellekt tavsiyasi yakuniy qaror emas: u psixolog va pedagogning professional maslahati bilan to'ldirilishi lozim.

Tajriba guruhlarida yuqoridagi texnologiyalar ishlab chiqilgan pedagogik model doirasida kompleks qo'llanildi, nazorat guruhlarida esa kasbga yo'naltirish an'anaviy shakllarda olib borildi (2-jadval).

2-jadval. O'quvchilarning kasb-hunarga yo'nalganlik darajalari, % (tajriba boshida va yakunida)

Daraja	**Nazorat guruhi, boshida**	**Nazorat guruhi, yakunida**	**Tajriba guruhi, boshida**	**Tajriba guruhi, yakunida**
Yuqori	26,3	35,0	26,5	46,3
O'rta	23,1	38,8	22,2	39,5
Quyi	50,6	26,2	51,2	14,2

Tajriba guruhida yuqori darajadagi o'quvchilar ulushi 19,8 foiz bandga oshdi, quyi darajadagilar ulushi esa 37,0 foiz bandga kamaydi; nazorat guruhida bu ko'rsatkichlar mos ravishda 8,7 va 24,4 foiz bandni tashkil etdi. Guruhlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli bo'ldi ($t = 2{,}81 > 1{,}96$; $\chi^2 = 8{,}33 > 5{,}99$; $\alpha = 0{,}05$). Kasblar va mehnat bozori

haqidagi bilim testida to‘g‘ri javoblar ulushi tajriba guruhida 88,5 %, nazorat guruhida 48,8 % ni tashkil etdi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchini kasbga yo‘naltirish jarayonining faol subyektiga aylantiradi va kasb tanlashni axborot olishdan amaliy sinov va ongli qarorga olib o‘tadi. Tajriba-sinov natijalari bu texnologiyalarni kompleks qo‘llash o‘quvchilarning kasbga yo‘nalganlik darajasini sezilarli oshirishini ko‘rsatdi. Shu asosda quyidagilar taklif etiladi:

1) bitiruvchi sinflar uchun kasbga yo‘naltirish ishlarini yillik reja asosida, har bir mavzuni aniq pedagogik texnologiya bilan bog‘lagan holda tashkil etish;

2) har bir fan bo‘yicha yil davomida kamida bitta kasbga yo‘naltirilgan yoki STEAM-loyihani o‘tkazish;

3) ish beruvchilar ishtirokida «Bir kun – ...» turidagi kasbiy simulyatsiyalarni muntazam tashkil etish;

4) amaliyotchi psixolog va sinf rahbarlari uchun kouching (GROW modeli), kasbiy simulyatsiya va onlayn tashxis bo‘yicha malaka oshirish modulini joriy etish; bunda «Kasbiy pedagogika» o‘quv qo‘llanmasidan [15] foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6079-son Farmoni. 2020-yil 5-oktabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-241-son qarori. 2022-yil 11-may.

4. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по обучению учащихся общих средних образовательных учреждений иностранным языкам и современным профессиям». № ПП-53 от 02.02.2024.

5. Holland J.L. Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments. 3rd ed. Odessa, FL: Psychological Assessment Resources, 1997.

6. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. Ростов н/Д: Феникс, 1996.

7. Пряжников Н.С. Методы активизации профессионального и личностного самоопределения. М.: МПСИ; Воронеж: НПО «МОДЭК», 2002.

8. Lent R.W., Brown S.D., Hackett G. Toward a unifying social cognitive theory of career and academic interest, choice, and performance // Journal of Vocational Behavior. 1994. Vol. 45, No. 1. P. 79–122.

9. Whitmore J. Coaching for Performance. London: Nicholas Brealey, 1992.

10. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. T.: Sano standart, 2015.

11. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari: monografiya. T.: Fan, 2007.

12. Mamadaliyev A.A. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish mexanizmlarini takomillashtirish // O‘zbekistonda xorijiy tillar. 2023. № 4 (51). B. 87–98.

13. Asilova S.X. Bitiruvchi o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda STEAM-ta’lim yondashuvi // International Journal of Scientific Researchers. 2025. Vol. 13, Issue 1. P. 140–141.

14. Asilova S.X. Raqamli ta’lim muhitida 11-sinf bitiruvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish // «Zamonaviy tadqiqotlar va barqaror rivojlanish» respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2026-yil 30-iyul. B. 131–133.

15. Asilova S., Usmonova N. Kasbiy pedagogika: o‘quv qo‘llanma. «Yashin sanoat» bosmaxonasi, 2024. 220 b.